

## BAXTIYOR.UZ - o'quvchi va o'qituvchilar uchun eng yaxshi portal!

### KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI

#### Madhiya

Davlatimiz madhiyasida Ona Vatan madhi zo'r ifoda qilingan . Bu tantanavor qo'shiq kuylanganda butun jahon oyoqqa turib, bevosita qo'li ko'ksiga boradi. Bu o'zbek xalqiga hurmat ma'nosini ifodalaydi . Barcha til va lahjalarda " O'zbekiston " so'zi takrorlanadi .

Murg`ak qalbini Vatan hissi , g`urur , iftixor tuyg`usi chulg`ab olgan farzandgina " Men ozod O'zbekiston farzandiman " deya dadil ayta oladi .

Men Ozod O'zbekiston farzandiman !

Men Ozod O'zbekiston farzandiman !

Men Ozod O'zbekiston farzandiman !

Biz Ozod O'zbekiston farzandimiz !

Mayliga , har so`zim bo`lmasa biyron ,

Mayliga boqmasin menga shu zamon .

Lek takror aytaman , mag`rur aytaman ,

Tilimda burrodir Vatan degan nom !

Dunyoga keldingmi, bas ,

Bilgil ilk huquqingni .

Faxrlanib tanigin

O'zingni , o'z ismingni .

- Mening ismim ..... Qo`limdagi tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi bor . Bu hujjatda menin familiyam , ismim, tug'ilgan sanam , tug'ilgan joyim va ota-onam to`g'risida ma'lumotlar bor . demak bu menin o'zbek fuqaroligimni bildiruvchi hujjat .

Men o'zbek farzandi , istiqlol dilbandi ekanligimdan faxrlanaman .

Men o'zbekman , o'zbek farzandi ,

Fuqarosi O'zbekistonning

Huquqim burchimni taniyman ,

Dilbandiman ozod Vatanning

O'qish , uqish birinchi burchim ,

Vatanimning erkasidurman .

Fikrim erkin , erkin so'zlayman,

Mustaqillik mevasidirman .

Davlatimiz mustaqillikka erishgach ,o'z qonunlarini o'rnatish imkoniga ega bo'ldi . Ularning ichidan eng muhimi , eng asosiysi esa –KONSTITUTSIYAmizdir . Shuning uchun Konstitutsiya – Davlatimizning bosh qonuni , qomusi deyiladi . U 1992 yilning 8- dekabrida qabul qilingan .

Davlatimiz har qilgan ishi

G`amxo'rligi faqat biz uchun .

Yangi ta'mirlangan maktablar

Sog`lom avlod kelajagi-chun .

Ajdodlarim meroslaridan

Boshim baland, mag'rur turaman .

Bugun faxrlansam ertaga

Davomchisi o'zim bo'laman .

Yo'llarimdan chiqsa , tikanlar  
Qo'rqlay dadil qadam tashlayman

Vatanimga qo'l ko'targanni  
Ertang o'zim ko'zin yoshlayman .

Vatan to'g'risida to'lib , ham toshib,  
Jo'shib- jo'shib aytgim keladi .  
Boshimni tik tutib, mardona turib,  
Men o'zbek farzandi degim keladi .

#### “ Istiqlol farzandlari “ qo'shig'i

Bilim ol, quvvatga to'l,  
Kasb-hunarga uzat qoo'l.  
Mana senga yangi yo'l  
Istiqlol farzandi bo'l.

Naqarot  
Biz o'zbek farzandimiz,  
Istiqlol dilbandimiz.  
Shahdam qadamlar bilan, 1,2,3,  
Kelajakni quramiz.

Alpomishning o`rnin bos ,  
Ot o'ynat mardlarga xos.  
Saxiy Hotamtoyga mos,  
Istiqlol farzandi bo'l.

Naqarot

Odob-axloq gulin ter,  
Dilga ezgu nurin ber.  
Bo'lay desang botir er,  
Istiqlol farzandi bo'l.

Naqarot  
“Davrning bolasi” ko'rsatuvi

**Assalom-u alaykum . “ Davrning bolasi “ ko'rsatuvi yana efirda .  
- “ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”da va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida**

**bo`lgan asosiy o`xshashlik – bu hamma teng huquqli bo`lishi shartlidir .**

**- Har kim o'z huquq va burchlarini bilshi lozim.**

**- Marhamat , shu lavhani tomosha qiling .**

- Har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega.
- Har birimiz dam olish va mehnat qilish huquqiga egamiz.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega, bepul umumiyy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi” deb yozib qo'yilgan.

- Har qanday inson o'zining va bolalarining xavfsizligini ta'minlanish huquqiga ega.
- Hammamiz yaxshi hayot kechirish huquqiga egamiz. Biz yaxshi yashashimiz va dam olishimiz uchun kiyim-kechak, daftar, qalam va boshqa barcha kerakli narsalarga ega bo'lishimiz lozim.
- Bundan tashqari, biz kasalliklardan davolanish huquqiga ham egamiz. Hech kim bizning davolanishimizga qo'sqinlik qila olmaydi.
- Sog'lom bo'lish, ota-onaga qulq solish, ularga yordam berish bizning asosiy burchimizdir.
  - uyda va ko'chada huquqbazarlik qilmaslik, tabiatni asrab-avaylash.
  - uyda, maktabda va ko'chada tozalikka riox qilish.
  - darsda to`g'ri o'tirish va o'qituvchining ruxsatisiz gapirmaslik.
  - uyda, maktabda va ko'chada hech narsani sindirmaslik, parta va devorlarga chizmaslik.
  - hech kimni aldamaslik, birovning narsasiga tegmaslik.
  - jonivorlarga ozor bermaslik , bizning asosiy burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak .

**Mamlakatimiz har bir fuqarosi millati , kasbi va amalidan qat'iy nazar teng huquqlidir . Davlatimizda qizlar va bolalar, ayollar va erkaklar , kattalar va kichiklar teng huquqlidirlar .**

#### **Hozirgi lavhamiz shu haqda .**

Lavha:

( Baland ovozda musiqa yangrayapti . O'spirin raqsga tushyabdi. Singlisi dars tayyorlab o'tiribdi )  
 Uf ,aka musiqani o'chiring , dars qilolmayapman . Ertaga imtixonim bor .  
 Men kun bo'yi ishlayman . Bo'sh vaqtimda xohlaganimcha dam olishga haqliman . Sen esa nuql dars qiliasan .  
 Ha, ikkalasi ham o'z huquqini talab qilyapti . To`g'ri ishdan va darslardan keyin biz istagan narsalar bilan mashg`ul bo'lishimiz mumkin . Xohlasak dam olamiz , televizor ko'ramiz ,o'ryoqlarimiz bilan o'ynaymiz .Bu bizning huquqimiz .Ammo o'zgalar huquqini ham hurmat qilishimiz kerak . Sevimli mashg`ulotimiz bilan shug`ullanganimizda boshqalarga xalaqit bersak ,biz ularning huquqini mensimagan bo`lamiz . Bu noto`g'ri .Chunki biz qanday huquqqa ega bo`lsak ,boshqalar ham shunday huquqqa ega .

Lavhani ..... “ Davrning bolasi “ uchun tayyorladi .

Ulg`ayaman qo'lda kitob ,  
 Yo'l olaman matabga  
 Har bolaning huquqi bor,  
 Matabda o'qimoqqa .

Maktab – bu ta'lim va tarbiya maskani Maktabda ustozlarimiz topshiriqlarini vaqtida bajarishimiz ,vaqtimizni bekor o'tkazmasligimiz kerak .Aksincha , ...ahvoliga tushib qolishimiz hech gap emas

Lavha

-Feruzaxon

- Labbay

-Sizga bitta qiyin savol beraymi yoki ikkita oson savol beraymi ?

- Bitta oson savol berib qo'yaqoling , domlajon .

- Ayting-chi, Davlat ramzlariga nimalar kiradi ?

( boshqa tarafga qarab )

Ustoz mendan nuql o'zi bilmagan narsalarni so'raydi . Ustoz o'zi shunday mavzu o'tganmidik ? Feruzaxon , bahona qidirmang , demak javob bera olmaysiz . Bolajonlar , qani shu savolga kim javob bera oladi ?

O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z ramzları – bayrog'i , gerbi va madhiyasiga ega .

Bu konstitutsiyamizning 5- moddasiga kiritilgan .

Ana ko'rdingizmi Feruzaxon , bu safar ham javob bera olmadingiz .Bahongiz “ 2 ” .  
Ustoz “2” qo`ymang .

## “ 2 “ qo`ymang

Qiyin ekan savolingiz ,  
Yo`qmi , boshqa savolingiz .  
Osonidan ozroq so`rang ,  
Jon domlajon , “ 2 “ qo`ymang .  
Yetarlidir ikki , uchim ,  
To`rt va beshga yetmas kuchim .  
Jon domlajon , ikki qo`ymang ,  
Shu safar ham rahm aylang .

Dadam dakki berar doim  
Ikki olsam xafa oyim .  
Jon domlajaon , ikki qo`ymang  
Oyimlarni xafa qilmang .

Jon domlajon ikki qo`ymang .

Bilim olish bizning huquqimiz bo`lsa , yaxshi o`qish bizning burchimizdir . Yaxshi o`qisak , a`lochi bo`lsak ota-onamiz ham bizdan xursand bo`lishadi .

..... “ Davrning bolasi “uchun

**-O`z huquqi va burchini to`liq anglab yetgan bola uni buzishga yo`l qo`ymaydi .**

**- Lobarxon , bilasizmi , huquqbazarlikning katta –kichigi bo`lmas ekan . Keling shu haqdagi kattalar fikrini eshitaylik .**

Muxbir: Ko`pincha kattalar biz bolalarni to`g`ri yo`lga boshlab yurishadi . Ayrim vaqtida salgina sho`xlik qilib qo`yganimiz ham qonunbuzarlik hisoblanadi . Masalan , kecha ikkita dugonamni sochlarni bir-biriga bog`lab qo`yganim uchun ustozim oyimni chaqirtiribdi . Oyimlar ham buni bolalikdagi sho`xlik deb hisoblashmadи .

-Aytingchi , bolaligingizda biron marta bo`lsa ham sho`xlik qilganmisiz ?

-Sizningcha arzimas qonunbuzarlik qilish ham mumkin emasmi ?

- Nima deb o`ylaysiz maktab direktori bilan maktab qorovuli bir xil huquqqa egami ?

Javoblariningiz uchun rahmat .Bu lavhani Mahfuza Rahmatullayeva “Davrning bolasi “ko`rsatuvi uchun tayyorladi .

**- Ota-onা , bobo – buvi , aka-uka , opa-singilarimiz bizlarni yaxshi ko`radilar**

**- Albatta , axir bu oilangiz-ku .**

**- Navbatdagи lavhamiz oila to`g`risida .**

- Qani bolalar kim o`zini oilasi bilan tanishtiradi ?

- Marhamat , Sapayevlar oilasini davramizga taklif qilamiz .

( stol atrofida o`tirishadi )

Bu mening oilam . Biz oilada 5 kishimiz . Bular oyimlar . Men oyijonimni juda yaxshi ko`raman Dadamlar ishda bo`lganligi uchun kela olmadilar . Yaxshi kiyinishimiz , yaxshi yeb- ichishimiz uchun dadamlar tinim bilmaydilar . Bu katta opamlar –Sapayeva Dinora . Ular maktabimizning 6-sinfida o`qiydilar . Bular esa kichik opamlar –Sapayeva Roziyajon . Ular maktabimizning 4- sinfida o`qiydilar . Men esa 2-“D”sinfida o`qiyman . Barchamiz a`lo baholarga o`qiyimiz .

**Asadbek bilasizmi ,har birimiz 18 yoshda saylash va saylanish huquqiga ega bo`lar ekanmiz .**

**To`g`ri aytdingiz ,biroq bu jarayonga yayyorgarlik ishlari maktabdanoq boshlab yuborilgan .**

Muxbir :Biz 2-“ D” sinf o’quvchilari O’rtasidagi zo`r bahs ustidan tishib qoldik . Ular sinf faollarini saylashayotgan ekanlar .

( Lavha )

Sinf faollarining boshqa a`zolari ham mana shunday ochiq ovozga qo`yish yo`li bilan saylandi .

Sir bo`lmasa , ayting-chi ,siz kimga ovoz berdingiz .

...ga

Nima uchun ... ga ovoz bermadingiz .

U yaxshi o`qiydi , a`lochi , ozoda . Biroq chernovek topolmasa masalani partasiga yozib yechadi .

Sinfboshi barchaga namuna bo`lishi kerak deb o`ylayman ,axir u davlat mulki-ku

Judayam to`g`ri , tengdoshlarim biz faqatgina shaxsiy mulkimiznigina emas, davlat mulkini ham asrab – avaylashimiz shart .

### Navbat sport xabarlariga

-Sinfdoshimiz Jamshidbek Rustamov sportning akrobotika va gimnastika turi bo`yicha viloyat musobaqsida qatnashib , ikki marta faxrli 2- o`rinni , bir marta esa 1-o`rinni egalladi . Keling hammamiz bu sunfdoshimizni olqishlaylik . Jamshidbek biz siz bilan faxrlanamiz .

Lavhani ..... tayyorladi .”Davrning bolasi”

uchun .

### “Davrning bolasi “

Bugun havo ancha sovuq Bir ozdan keyin qor yog`ishi kutilmoqda .Havo sovuq bo`lganligi uchun biz bilan qishlab qolgan qushlarga in qurish , don sepish esingizdan chiqmasin . Ona-tabiatimizga g`amxo`r bo`laylik. Chunk Konstitutsiyamizda har birimiz tabiatni asrashimiz , unga g`amxo`r bo`lishimiz yozib qo`yilgan .Ana va`da qilganimizdek qor ham gupillab yog`moqda .

“Davrning bolasi “ uchun .....

“ Qor yog`moqda “ qo`shig`i

Men Vatanni Ona dedim – Onamdir Vatan ,

Shu Vatanni gulzor bildim – g`unchaman men ham .

Qaynoq tafting , issiq bag`ring –yayrab o`saman ,

Sen baribir muqaddassan , muqaddas – Vatan !